

INSON HUQUQLARI UMUMJAHON DEKLARATSIYASI

Zarina Nigmatullo qizi

Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali talabasi

Luxmonov O'ralxon

Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali talabasi

Annotatsiya: Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini barcha davlat va xalqlar Tashkilotga a'zo bo'lgan davlatlar xalqlari o'rtasida va ushbu davlatlarning yurisdiksiyasidagi hududlarda yashayotgan xalqlar o'rtasida yalpisiga va samarali tan olinishiga intilishlari zarurligi, davlatlar bajarishga intilishi lozim bo'lgan vazifa sifatida bajarilishi haqida aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Bosh Assambleya, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Deklaratsiya, erkinlik, adolat, insoniyat oilasining hamma a'zolariga xos qadr-qimmati.

Kirish

Insoniyat oilasining hamma a'zolariga xos qadr-qimmat va ularning teng, ajralmas huquqlarini tan olish erkinlik, adolat va yalpi tinchlik asosi ekanligini e'tiborga olib; inson huquqlarini mensimaslik va uni poymol etish insoniyat vijdoni qiynaladigan vahshiyona ishlar sodir etilishiga olib kelganini, kishilar so'z erkinligi va e'tiqod erkinligiga ega bo'ladigan hamda qo'rquv va muhtojlikdan holi sharoitda yashaydigan dunyoni yaratish insonlarning ezgu intilishidir deb e'lon qilinganligini e'tiborga olib; inson oxirgi chora sifatida zulm va istibdodga qarshi isyon ko'tarishga majbur bo'lishining oldini olish maqsadida inson huquqlari qonun kuchi bilan himoya etilishi zarur ekanligini e'tiborga olib; xalqlar o'rtasida do'stona munosabatlarni rivojlantirishga ko'maklashish zarurligini e'tiborga olib;

Birlashgan Millatlar xalqlari insonning asosiy huquqlariga, shaxsning qadr-qimmatiga, erkak va ayolning teng huquqliligiga, o'z e'tiqodlarini Nizomda tasdiqlaganliklari hamda yanada kengroq erkinlikda ijtimoiy taraqqiyot va turmush sharoitlarini yaxshilashga ko'maklashishga ahd qilganliklarini e'tiborga olib;

a'zo bo'lgan davlatlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlikda inson huquqlari va asosiy erkinliklarini yalpi hurmat qilish va unga rioya qilishga ko'maklashish majburiyatini olganligini e'tiborga olib;

mazkur huquqlar va erkinliklarning xarakterini yalpi tushunish ushbu majburiyatlarning to'liq ado etilishi uchun katta ahamiyatga ega bo'lishini e'tiborga olib; Bosh Assambleya mazkur Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini barcha xalqlar va barcha davlatlar bajarishga intilishi lozim bo'lgan vazifa sifatida e'lon qilar ekan, bundan muddao shuki, har bir inson va jamiyatning har bir tashkiloti doimo

ushbu Deklaratsiyani nazarda tutgan holda ma'rifat va ta'lim yo'li bilan bu huquq va erkinliklarning hurmat qilinishiga ko'maklashishi, milliy va xalqaro taraqqiyparvar tadbirlar orqali ham uning bajarilishi ta'minlanishiga, Tashkilotga a'zo bo'lgan davlatlar xalqlari o'rtasida va ushbu davlatlarning yurisdiksiyasidagi hududlarda yashayotgan xalqlar o'rtasida yalpisiga va samarali tan olinishiga intilishlari zarur.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi — BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan deklaratsiya. U muqaddima va 30 moddadan iborat bo'lib, uni qabul qilishdan maqsad har bir inson va davlat mazkur. Deklaratsiyani nazarda tutgan holda ma'rifat va ta'lim orqali shu huquq va erkinliklar hurmat qilinishiga ko'maklashishi lozim. Deklaratsiya har bir insonning tabiiy va ajralmas huquq va erkinliklari e'lon etilgan asosiy xalqaro hujjatdir. Shu tariqa xalqaro munosabatlar tarixida birinchi marta insonning hamma rioya etishi zarur bo'lgan asosiy huquqlari va erkinliklari doirasi belgilab berilgan. Deklaratsiyada "insoniyat oilasining hamma a'zolariga xos qadr-qimmatni, ularning teng va ajralmas huquqlarini tan olish — erkinlik, adolat va yalpi tinchlik negizi" ekanligi e'lon etilgan. Unga ko'ra, umumhurmat va rioya qilishi shart bo'lgan inson huquqlari doirasi shaxsiy, siyosiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy huquqlardan iboratdir.

Shaxsiy huquqlar orasida avvalo har bir kishining hayoti, erkinligi va shaxsiy daxlsizligi huquqi alohida ta'kidlangan. Deklaratsiyaning boshqa qoidalari esa mazkur huquqlarni to'ldiradi. Xususan, hech kim qullikda, zabun holatda tutilmasligi, qiynoqqa yoxud ayovsiz, g'ayriinsoniy, odam sha'nini yerga uradigan muomala va jazoga duchor etilmasligi, o'zboshimchalik bilan qamoqqa olinmasligi, ushlab turilmasligi lozim ekanligi qayd etilgan. Shaxs huquqlari sirasiga shaxsiy va oilaviy hayotning, turar joyning daxlsizligi huquqi, yozishmalarni sir saqlash huquqi, o'z sha'ni va obro'sini himoya qilish huquqi, odil sudlov tomonidan muhofaza etilish huquqi kabilar kiradi (3— 5, 8—12-moddalar).

Deklaratsiyada insonning quyidagi siyosiy huquqlari hamda erkinliklari ham ta'kidlangan: fikrlash, vijdon, din erkinligi; e'tiqod erkinligi va uni erkin ifodalash huquqi; tinch yig'ilishlar o'tkazish hamda uyushmalarga a'zo bo'lish huquqi; o'z mamlakatini boshqarishda qatnashish huquqi; yashirin ovoz berish yo'li bilan umumiy va teng saylash huquqi; erkin ravishda ko'chib yurish hamda o'ziga turar joy tanlash huquqi; boshpana huquqi; milliy yoki diniy alomat bo'yicha hech bir cheklovsiz nikohdan o'tish va oila qurish huquqi; mulkka egalik qilish huquqi (13—21-moddalar).

Mehnat qilish huquqi, adolatli va yetarli ravishda taqdirlanish hamda mehnat uchun teng mehnat haqi olish huquqi, kasaba uyushmalari tuzish huquqi; dam olish huquqi; ijtimoiy ta'minlanish huquqi; onalik va bolalikni alohida himoyalash huquqi; ta'lim olish va madaniy hayotda qatnashish huquqi (22—27-moddalar) insonning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari hisoblanadi.

Deklaratsiyada inson manfaatlarining ustuvorligi quyidagi tamoyillarda o'z aksini topgan: inson huquqlarini hurmat qilish, inson huquqlarining tengligi, inson erkinliklari, inson huquqlarini amalga oshirishning demokratik jarayoni, inson huquqlarini ta'minlashning adolatligi. Deklaratsiyada e'lon etilgan mazkur inson huquqlariga oid tamoyillarga ko'ra barcha kishilar erkin tug'iladi va o'z qadr-qimmatini hamda huquqlari jihatdan teng bo'lib, ular qonun oldida teng va qonun tomonidan babbaravar himoyalani huquqiga ega (1, 2, 7-moddalar).

Mazkur Deklaratsiya qoidalari davlat yoki ayrim shaxslar tomonidan inson huquqlarini buzish uchun ishlatilishi mumkin emas. Har bir shaxs uchun o'z g'alarning huquq va erkinliklarini hurmat qilish jamiyat a'zolarining burchidir.

Birlashgan Millatlarning xalqlari Ustavida insonning asosiy huquqlarini, qadr-qimmatini va inson shaxsning benazirligiga hamda erkaklar va a'ellarning teng huquqligiga o'z ishonchlarini tasdiqlaganliklarni hamda katta huquq bilan ijtimoiy taraqqiyot va turmush sharoitini yaxshilashga yordam berishga qaror qilganliklarni e'tiborga olib,

A'zo bo'lgan davlatlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlikda inson huquqlari va asosiy erkinliklarni yalpi hurmat qilish va rioya etishga yordamlashish majburiyatini olganliklarni e'tiborga olib,

Ushbu huquqlar va erkinliklar tusini yalpisiga tushunib olish mazkur majburiyatni to'la-to'kis bajarilishi uchun juda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 12.05.2023 yildagi PF-70-son
Kuchga kirish sanasi
13.05.2023

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
FARMONI**

INSON HUQUQLARI UMUMJAHON DEKLARATSIYASI QABUL QILINGANLIGINING 75 YILLIGINI KENG NISHONLASH TO'G'RSIDA

So'nggi yillarda mamlakatimizda "Inson qadri uchun" degan ezgu g'oyani to'liq ro'yobga chiqarish, inson huquq va erkinliklari sohasidagi xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish, davlat organlari faoliyatiga tizimli va bosqichma-bosqich joriy etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Inson huquqlari va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish hamda qonun ustuvorligini ta'minlash, shuningdek, jamiyat va har bir fuqaro hayotiga ularni tatbiq etish Yangi O'zbekistonning ichki va tashqi siyosatida markaziy o'rinni egallab kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasining inson huquqlari sohasida zimmasiga olgan xalqaro majburiyatlarini samarali bajarishga qaratilgan Inson huquqlari bo'yicha Milliy strategiyasida belgilangan vazifalarning izchil amalga oshirilayotgani uning xalqaro maydondagi obro'si yanada mustahkamlanishiga hamda mamlakatimizda inson huquqlari va erkinliklariga hurmat munosabati shakllanishiga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha kengashining a'zosi sifatida faol harakati, BMTning Inson huquqlari bo'yicha oliy komissari hamda inson huquqlari masalalari bo'yicha maxsus ma'ruzachilar bilan yaqin hamkorligi bunga yorqin misol bo'lmoqda.

Inson huquqlariga oid xalqaro standartlarni amalga oshirish, ayniqsa ayollar, bolalar, yoshlar va nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini himoya qilish hamda ijtimoiy adolat tamoyillariga konstitutsiyaviy maqom berildi. Shuningdek, xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish, qiynoqqa solishning oldini olish bo'yicha milliy preventiv mexanizmning qonuniy asoslarini shakllantirish, majburiy mehnat va bolalar mehnatiga barham berish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari sohasidagi Milliy ta'lim dasturining qabul qilinishi mamlakatimizda inson huquqlari sohasidagi ta'limni yanada rivojlantirishga, aholining inson huquqlari sohasidagi huquqiy savodxonligini oshirishga, shuningdek, davlat xizmatchilarining inson huquqlari va gender tenglik sohasidagi bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan.

BMT Bosh kotibining "Inson huquqlari yo'lida harakatga da'vat" tashabbusini qo'llab-quvvatlash, O'zbekiston Respublikasining inson huquqlari sohasida zimmasiga olgan xalqaro majburiyatlarini izchil va qat'iy bajarishni davom ettirish, fuqarolarning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qilishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy, qonunchilikka oid chora-tadbirlar tizimini yanada takomillashtirish maqsadida:

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 75 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar dasturi (keyingi o'rinlarda — Dastur) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 75 yilligiga bag'ishlangan tadbirlarda davlat tashkilotlari va muassasalari, jamoatchilik birlashmalari, ommaviy axborot vositalarining faol ishtirok etishi eng muhim vazifa deb hisoblansin.

2. O'zbekiston Respublikasida Inson huquqlari sohasidagi Jahon ta'lim dasturining to'rtinchi bosqichini amalga oshirish bo'yicha Milliy komissiyasiga (keyingi o'rinlarda — Milliy komissiya) (A. Saidov) Dasturni amalga oshirish yuzasidan quyidagi vazifalar yuklansin:

Dasturda belgilangan tadbirlar ijrosini tashkil qilish va amalga oshirishga ko'maklashish hamda ularning o'z vaqtida ijro etilishini nazorat va monitoring qilish;

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 75 yilligiga bag'ishlangan xalqaro tadbirlarda O'zbekiston vakillarining faol ishtirok etishi bo'yicha xalqaro tashkilotlar, eng avvalo, BMT muassasalari bilan yaqin hamkorlikni ta'minlash;

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 75 yilligiga bag'ishlangan, shuningdek, inson qadri va huquqlarini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarning ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini, shu jumladan axborot-tahliliy sharhlar tayyorlanishi, xorijiy tillarga tarjima qilinishi va e'lon qilinishini tashkil etish.

3. Dasturda belgilangan mas'ul ijrochilar o'zlariga yuklatilgan vazifalar ijrosi to'g'risidagi ma'lumotlarni har oyning 5-sanasiga qadar Milliy komissiya ishchi organi — Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markaziga taqdim etib borsin.

4. Milliy komissiya va Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazining 2023-yildan boshlab har yili 1 — 10-dekabr kunlari mamlakatimizda "Inson huquqlari" o'n kunligini e'lon qilish hamda barcha umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim muassasalarida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilingan kunga bag'ishlangan umummilliy dars o'tkazish to'g'risidagi takliflari ma'qullansin.

5. Iqtisodiyot va moliya vazirligi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi asosiy maqsadlarini amalda ro'yobga chiqarishda BMT sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida BMT Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi maxsus jamg'armasiga O'zbekistonning ixtiyoriy badali sifatida yuz ming AQSh dollari miqdorida mablag' ajratsin.

6. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi O'zbekiston Milliy axborot agentligi va O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi bilan hamkorlikda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 75 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar dasturining amalga oshirilishini har tomonlama yoritib borsin.

7. Mazkur Farmonning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi direktori A.X. Saidov belgilansin.

Farmon ijrosi uchun mas'ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.¹

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,

2023-yil 12-may,

PF-70-son

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi tamoyillari va normalari to'g'risidagi bilimlarini oshirish, inson huquq va erkinliklarini ishonchli

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV Toshkent sh.

himoya qilish inson haq-huquqlarini himoya qilish uchun keng ishlar olib borilmoqda. Bugungi kunda insonga nisbatan qullik tizimini butkul yo'q qilish chora-tadbirlari ushbu deklaratsiyada juda o'rinli yo'lga qo'yilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: 1.“O'zbekiston” nashriyoti, 2021. - 464 bet.
2. Sh.Mirziyoyev Xalqimiz roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. Toshkent: “O'zbekiston”, 2018.
3. Sh.Mirziyoev. Tanqidiy tahlil, qat'iy intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbarning kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - Toshkent. “O'zbekiston”, 2017.
4. Sh.Mirziyoyev Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent